Tadqiqot.uz

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

## DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022




2022

IYUN

№41

Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz
www.conferences.uz

CONFERENCES.UZ

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 15-ҚИСМ

# НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ КОНФЕРЕНЦИЙ: ЧАСТЬ-15

# NATIONAL RESEARCHES OF UZBEKISTAN: CONFERENCES SERIES: PART-15

ТОШКЕНТ-2022

**УУК 001 (062)**
**КБК 72я43**

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:”** мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 22 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар**
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**
Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**8.Адабиёт**
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**
Доцент  Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**
Доцент  Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**
Доцент  Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadqiqot.uz**

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

## МУСИҚА ВА ҲАЁТ

**1. Mirshayev Ulug‘bek Muzafarovich, Raximov Abdurasul Ravshan o‘g‘li**
MUSIQA TA’LIMI VA MILLIY MUSIQASHUNOSLIK TARIXI HAQIDA............................ 7

## МУСИҚА ВА ҲАЁТ

### MUSIQA TA’LIMI VA MILLIY MUSIQASHUNOSLIK TARIXI HAQIDA

**Mirshayev Ulug‘bek Muzafarovich,**
Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik fakulteti
Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi
**Raximov Abdurasul Ravshan o‘g‘li,**
Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik fakulteti
Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda musiqa ta’limi va milliy musiqashunoslikning dastlabki qadamlari, mutafakkirlarimizning musiqa san’atiga doir ta’limotlari, notatsiya hamda xalq musiqa merosini notalashtirish tarixi, milliy musiqa an’analarini yosh avlodga targ‘ib etish masalalari yoritilgan.
**Kalit so‘zlar:** milliy musiqa, risolalar, ud chizig‘i, tanbur chizig‘i, hofiz, ijrochi, shashmaqom, musiqashunoslik.

Milliy musiqa an’analarining bugungi kunga qadar bus-butun yetib kelishida musiqa ta’limi hamda milliy musiqashunoslik katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek mutafakkirlari milliy musiqa xususida bir qator nodir manbaalarni qoldirganlar. Musiqashunoslar tomonidan yozilgan risolalar, yaratilgan ta’limotlar bir uchun beqiyos ma’naviy xazina hisoblanadi. Musiqa ta’limi tarixida shunday manbaalar borki, ulug‘ allomalarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiylar o‘z sohasi bo‘yicha dunyo tan olgan ta’limotlarni yaratish barobarida, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, cholg‘u san’ati bo‘yicha bir qator ilmiy manbaalar kashf etishgan. Jumladan, Forobiy va Ibn Sino o‘z davrlarida mashhur bo‘lgan ko‘pgina musiqa sozlarini takomillashtirish bilan birga ud, nay, g‘ijjak, qonun kabi bir qator cholg‘ularda mahorat bilan ijro eta olishgan. Donishmandlar har bir musiqa asbobining o‘ziga xos fazilati borligini aytib, uni inson ruhiyatini ma’naviy boyituvchi vosita sifatida ta’riflashgan. Milliy musiqa an’analarining shakllanishi, taraqqiyotida Abu Nasr Forobiyning X asrda yaratgan ud chizig‘i, Safiuddin Urmaviyning XIII asrda yaratgan musiqa yozuvi, Komil Xorazmiyning XIX asrda asos solgan Xorazm tanbur chizig‘i notatsiyalarining yaratilishi musiqashunoslik tarixida ulkan voqealardan bo‘ldi. Yuqorida aytib o‘tilgan nota yozuvlari o‘sha davrda faqatgina ud yoki tanbur uchun mo‘ljallangan bo‘lsada, keyinchalik xalq musiqa merosini o‘rganishda, Buxoro Shashmaqomini tiklashda muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Buni musiqashunos Viktor Uspenskiy hamda milliy musiqa tarixi va nazariyasi bilimdoni Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan buxorolik yetakchi xalq hofizlaridan Ota Jalol Nosir va tanbur sozining mohir ijrochisi Ota G‘iyos Abdug‘anilardan “Shashmaqom”ning 6 qismini notaga yozib olinganligi, 1924 yilda nashrdan chiqarilganligi misolida ta’kidlash lozim.

Shuningdek, maqom bilimdonlari Shohnazar Sohibov, Boboqul Fayzullayev va Fazliddin Shahobovlar Buxoro “Shashmaqomini”ning mukammal nusxasini notaga ko‘chirishdi va 1950 yilda Viktor Belyayev tahriri ostida Moskvada nashrdan chiqarishdi. Bu esa bu jahoniy merosni asrab-avaylash, uning an’analarini kelajak avlodga yetkazish yo‘lida amalga oshirilgan ishlardan biri bo‘ldi

Xalq musiqasini notalashtirishda navbatdagi qadam akademik Yunus Rajabiyning “Shashmaqom”ni to‘plab notaga olganliklari bo‘ldi. Yunus Rajabiy notalashtirgan ishlari “O‘zbek xalq musiqasi”ning 5-jildi “Buxoro maqomlari” nomi ostida, Ilyos Akbarov tahririda 1959-yilda chop etildi. 1966-yilda Toshkentda “Shashmaqom” 6 tomlik kitob tarzida Yunus Rajabiy yozuvida, Fayzulla Karomatov tahririda chop etiladi. Yunus Rajabiyning “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” to‘plami, “Musiqa merosimizga bir nazar” risolalari mil¬liy musiqa merosi, an’analarini tiklanishi va targ‘ib etilishida beqiyos xizmat qildi.

XX asrning 70-80-yillarida ham musiqashunoslikda milliy musiqamiz tarixini o‘rganish,

an'analarini tiklash, nazariy asoslarini tadqiq etish borasida qator izlanishlar, ilmiy ishlar olib borildi. Shu o'rinda musiqashunos professorlar F.Karomatov, O.Matyoqubov, T.G'afurbekov, O.Ibrohimov, R.Abdullayev R.Yunusovlarning ilmiy ishlarini ta'kidlab o'tish joiz.

Musiqa ta'limida ham bu muammoning ko'pgina qirralari har tomonlama tadqiq etildi. Bu borada professorlar H.Nurmatov, A.Hasanov, Q.Mamirov, F.To'rayev va boshqa olimlar Oliy va o'rta ta'lim tizimida milliy musiqa, uning an'analaridan o'quv-tarbiya jarayonlarida foydalanishning pedagogik masalalarini ishlab chiqib, amaliyotda joriy etish yo'llarini ko'rsatib berishdi.

Milliy musiqa an'analari, uni tiklash, o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etib, yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishdagi dolzarb muammo ekanligini ta'kidlagan holda biz bu borada hali juda ko'p ilmiy izlanishlar olib boriladi va uning amaliy jihatlari yanada kengroq tadbiq etiladi deb o'ylaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent., Fan., 1993 yil.
2. Karomatov F. O'zbek chlg'uchilik musiqasi. Moskva., Muzika 1980 yil.
3. Миршаев У. O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARINING SHAKLLANISH TARIXI VA SHARQ MUSIQASHUNOS OLIMLARINING CHOLG'U IJROCHILIGI SAN'ATIGA OID ILMIY MEROSI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
4. Raximov A. R. O. G. L. et al. O'ZBEK MUSIQA FOLKLORI NAMUNALARINI TO'PLASH VA YOZIB OLISH TARIXIDAN //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5.

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 15-ҚИСМ

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000